

Farg'ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun


- I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra viloyatda 6 072 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1046 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,2% i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 755 tasi (12,4%) kiyim ishlab chiqarishga, 320 tasi (5,2 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni

1- yanvar holatiga ko'ra



II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan **59 364,4** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg'ona viloyati	59 364,4	107,3
<i>shahar tumanlar:</i>		
Farg'ona shahri	12666,6	107,0
Qo'qon shahri	9410,4	109,4
Quvasoy shahri	2211,6	108,4
Marg'ilon shahri	2458,9	109,2
Oltiariq tumani	1103,8	109,1
Qo'shtepa tumani	3074,0	106,8
Bag'dod tumani	1211,1	106,7
Buvayda tumani	1022,3	107,6
Beshariq tumani	1668,4	109,2
Quva tumani	930,4	105,2
Uchko'prik tumani	4906,5	107,2
Rishton tumani	660,4	110,7
So'x tumani	192,9	110,9
Toshloq tumani	2188,1	107,8
O'zbekiston tumani	1513,6	109,1
Farg'ona tumani	1868,6	109,8
Dang'ara tumani	1560,0	108,3
Furqat tumani	878,2	105,2
Yozyovon tumani	478,7	108,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (38 181,4 ming so'm), Qo'qon shahrida (29 723,0 ming so'm), Quvasoy shahrida (21 267,9 ming so'm), Uchko'prik tumanida (19 662,4 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (14 188,9 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yozyovon tumanida (106,4 %), Farg'ona tumanida (107,7 %), Qo'qon shahrida (107,3 %), Beshariq tumanida (107,3 %), Marg'ilon shahrida (107,5 %) So'x tumanida (107,8 %), Rishton tumanida (108,6 %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar- dekabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 54 795,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (92,3%)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 337,4 mlrd so'm (0,6%), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 3 752,5 mlrd so'm (6,3%) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 479,4 mlrd so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025- yilning yanvar-dekabr oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 150,1 ming tonna avtomobil benzini (2024- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 55,4 % ga kamaygan), 1 204,4 ming litr aroq mahsulotlari (108,2 % ga ko'payga) hamda 404 291,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (139,3 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr*	2024- yil yanvar-dekabr*	2025- yil yanvar-dekabr*
Paxta tolasi, tonna	96 017,0	83 371,6	95 965,7
Paxta urug'lari, tonna	147 047,7	127 375,9	132 659,5
Avtomobil benzini, ming t	318,2	270,7	150,1
Dizel yoqilg'isi, ming t	438,6	346,4	209,5
Paxta linti, tonna	7 800,4	8 068,9	11 297,7
Neft bitumi, ming t	59,3	55,7	50,7
Portlandsement, ming t	861 706,0	536 621,0	411 545,1
Sement klinklari, ming t	749 587,0	201 500,0	17 815

**2024-2025- yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,5 % (2024 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –14,2 % (2024 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,7 %)ni tashkil etdi.

[Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi](#)

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida

0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 17,7 % (17,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,9 % (25,4 %), quyi texnologiyali 56,8 % (56,9 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 80,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 134,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr*	2024- yil yanvar-dekabr*	2025- yil yanvar-dekabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln kvts	1 246,3	1 677,6	1 542,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	930,8	1 174,8	2 210,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suv yig'ish, tozalash va tarqatish 104,1 % ni, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 182,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatishni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr*	2024- yil yanvar-dekabr*	2025- yil yanvar- dekabr*
---------------------	-----------------------------	-----------------------------	------------------------------

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	120,2	213,0	303,1
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	103,9	94,8	176,3

**2024-2025- yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 27 648,8 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 59,1 %ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 45,3 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

B. Xamdamov
73 241-96-28 (4010)

Manzil:

